



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2025



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar





2025

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2-JILD 3-SON



YANGI RENESSANS

**RESPUBLIKA ILMIY JURNALI
TO'PLAMI**

2 - JILD, 3 - SON

2025

Google Scholar



zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



**Academic
Resource
Index
ResearchBib**

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



ERKIN A'ZAM ASARLARIDA AXLOQIY TARBIYA VA MA'NAVIY KAMOLOT G'OYALARI

Nomozaliyeva Hilolaxon

Qo'qon davlat universiteti
Gumanitar fanlar va tillar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
nomozaliyevahilola@gmail.com

Annatatsiya. Ushbu maqola zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk vakili Erkin A'zam ijodida adabiyot va ma'naviyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot ishida yozuvchi asarlaridagi ma'naviy qadriyatlarning ifoda topishi, milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish masalalari, shuningdek, adabiyotning jamiyat ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi roli atroflicha o'rganilgan. Shu bilan bir qatorda, uning hikoyalarida yurtga nisbatan muhabbat, ota-onaga hurmat, adolat, haqparastlik, do'stlik va sadoqat kabi ezgu fazilatlarining qanday tasvirlanganligi ko'rsatib o'tilgan. Ijodkor asarlarida ma'naviy poklik, ruhiy go'zallik va axloqiy kamolot masalalarining badiiy ifodasi ochib berilganligi ta'kidlangan. Maqolada Erkin A'zamning "Sovuq", "Ostona", "Navoiyni o'qigan bolalar" hamda "Fideldan salom" kabi taniqli asarlarida ma'naviy tarbiya, ruhiy kamolot va axloqiy yuksalik masalalari qanchalik chuqur talqin etilganligi tahlil qilingan. Muallif ijodi orqali milliy ma'naviyatimizning asil qadriyatlari va ularning zamonaviy talqini orqali kelajak avlodlarning ma'naviy kamolotiga qo'shgan ulkan hissasi baholangan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar, adabiyot, milliy ruh, badiiy ijod, ruhiy kamolot, ma'naviy tarbiya, kitobxonlik, insonparvarlik.

Annotation. This article is devoted to examining the organic connection between literature and spirituality in the work of Erkin A'zam, a distinguished representative of contemporary Uzbek literature. The research study comprehensively investigates the expression of spiritual values in the writer's works, issues of preserving and developing national identity, and literature's role in shaping and developing society's spirituality. Additionally, it demonstrates how noble virtues such as love for one's homeland, respect for parents, justice, truthfulness, friendship, and loyalty are portrayed in his stories. The article emphasizes that the writer's works reveal the artistic expression of spiritual purity, inner beauty, and moral perfection. The article analyzes how profoundly issues of spiritual education, inner development, and moral elevation are interpreted in Erkin A'zam's renowned works such as "Cold", "Threshold", "Children Who Read Navoi" and "Greetings from Fidel". Through the author's creative output, the genuine values of our national





spirituality and their contemporary interpretation are evaluated for their immense contribution to the spiritual development of future generations.

Keywords: spirituality, moral values, literature, national spirit, artistic creation, spiritual development, spiritual education, reading, humanism.

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию органической взаимосвязи между литературой и духовностью в творчестве Эркина Азама, зрелого представителя современной узбекской литературы. В исследовательской работе всесторонне изучены вопросы выражения духовных ценностей в произведениях писателя, проблемы сохранения и развития национального самосознания, а также роль литературы в формировании и развитии духовности общества. Наряду с этим показано, как в его рассказах изображаются такие благородные добродетели, как любовь к родине, уважение к родителям, справедливость, правдолюбие, дружба и верность. Подчеркивается, что в произведениях творца раскрывается художественное выражение вопросов духовной чистоты, душевной красоты и нравственного совершенства. В статье анализируется, насколько глубоко интерпретируются проблемы духовного воспитания, душевного совершенствования и нравственного возвышения в известных произведениях Эркина Азама, таких как “Холод”, “Порог”, “Дети, читавшие Навои” и “Привет от Фиделя”. Через творчество автора оценивается огромный вклад подлинных ценностей нашей национальной духовности и их современной интерпретации в духовное совершенствование будущих поколений.

Ключевые слова: духовность, нравственные ценности, литература, национальный дух, художественное творчество, духовное развитие, духовное воспитание, чтение, гуманизм.

Adabiyot ma'naviy hayotning eng muhim qismi bo'lib, jamiyatni tarbiyalashda asosiy o'rinni egallaydi. Inson o'zini va atrofidagi dunyoni tushunishida, hayot mazmunini anglashida adabiyotning roli muhim hisoblanadi. Adabiyot insonning ichki dunyosini aks ettiradi va uni ma'naviy jihatdan rivojlantirishga yordam beradi.

Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. Ma'naviyat va adabiyot o'rtasida qat'iy bog'liqlik mavjud bo'lib: adabiyot ma'naviyatni shakllantiradi, ma'naviyat esa adabiyotga ta'sir qiladi. Bu ikki tushuncha doimo bir-birini to'ldiradi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha milliy til va adabiyotni saqlash hamda rivojlantirish masalasi dolzarb muammoga aylanmoqda. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, turli madaniyatlarning o'zaro



ta'siri natijasida tillar va adabiy meroslar yo'qolib ketish xavfi ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatida ona tilini rivojlantirish va madaniy merosni saqlash ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 15-dekabrda "O'zbekistonning madaniy merosini saqlash va uni jahon miqyosida targ'ib qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (PQ-6270-sonli) qarori mamlakatimizda ona tili va milliy adabiyotning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan.

Bugungi kunda adabiyot nafaqat o'quvchiga badiiy-estetik zavq berish uchun, balki ma'naviy tarbiya berish maqsadida ham katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyotida inson psixologiyasi va ma'naviy dunyosini yoritishda o'z o'rniga ega yozuvchilardan biri Erkin A'zamdir. Adibning hikoyalarida oddiy odamlarning hayoti, ularning muammolari, orzu-havaslar va his-tuyg'ulari keng yoritiladi. Yozuvchi o'z asarlarida sadoqat, mehribonlik, sabr-toqat, halollik, adolatparvarlik kabi muhim tushunchalarga urg'u beradi. Uning qahramonlari asosan oddiy xalq odamlari bo'lib, ular orqali ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar ochib beriladi.

Bugun biz yangi davrda yashayapmiz. Bu davr fan va texnikaning yuksak taraqqiy etishi barobarida globallashuv jamiyat hayotining barcha jabhalarini shiddat bilan qamrab olayotgani, ommaviy madaniyat xuruji yosh avlod qalbi va ruhini turli vositalar orqali zabt etishga urinayotgani bilan xarakterlanadi. Ana shunday murakkab va ziddiyatli sharoitda dunyoni ommaviy madaniyat xurujidan, ma'naviyatsizlik va axloqsizlik girdobidan saqlab qola oladigan yagona kuch – adabiyotdir. Adabiyot ana shu jihati bilan ham ma'naviyatning posbonidir¹. Adabiyot inson ma'naviy olamining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. U jamiyatning tarixi, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlari va insoniy fazilatlarini yorituvchi muhim manba hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Erkin A'zam ijodi ham ma'naviyatni boyitish, insoniylik va milliylikni teran anglashda alohida ahamiyat kasb etadi. Erkin A'zamning "Sovuq" nomli hikoyasi zamonaviy jamiyatdagi muammolarni aks ettiruvchi asarlar qatoriga kiradi. Bu asarda yozuvchi insonlar o'rtasidagi iliq munosabatlarining yo'qolishi, jamiyatda hukmronlik qilayotgan materializmga intilish hamda odamlarning bir-biriga nisbatan befarq va sovuq munosabatining salbiy natijalarini tasvirlaydi. Muallif bosh personajning turmush tarzini tasvir etish orqali jamiyatdagi ijtimoiy kamchiliklarni va odamlarning ma'naviy qashshoqliklarini ko'rsatadi. Muallif axloqiy g'oyalarni bevosita pand qilish orqali emas, balki hayotiy voqealar orqali ko'rsatadi. Asarlarda ijobiy hamda salbiy fazilatlarini ochib berilgan qahramonlar kitobxonni mustaqil mulohaza yuritishga yetaklaydi. Erkin A'zam hikoyalarida insoniy ruhiyat, ma'naviy

¹ Jabborov N. Adabiyot va milliy ma'naviyat. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2015. – 3 b



iztirob va ijtimoiy hayotning nozik jihatlari chuqur badiiy tahlil etiladi. Yozuvchi psixologik realizm usullaridan foydalanib, zamonaviy inson ma'naviy olamining murakkabliklarini ochib beradi. "Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha — qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuqori aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi," — deya ta'kidlagan edi birinchi Prezidentimiz. Bundan ko'rinib turibdiki, jamiyatning beparvoligi ortidan ko'plab insonlar ham ma'naviy, ham ijtimoiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi.

Asar arxitektonasi bu - uning tashqi kompozitsiyasi deyiladi. Unda tashqi qurilishi, uning qism, bob, fasl, band, parda va ko'rinishlariga bo'linishi, sarlavha, epigraf, so'zboshi va so'ng so'z, izoh kabilar kiradi. Ular ham asarning mazmunini ochib berishda muhim hisoblanadi. Xususan, "Ostona" hikoyasining bosh g'oyasi sifatida inson qaytishiga bo'lgan kuchli ishonch, umid tasvirlanadi. Shuningdek, inson qadri va xotirasi, oilaviy qadriyatlar, oila instituti, jamiyatdagi insonlarning o'zaro munosabatlari, farzand tarbiyasi, inson qadri, bir-birini tushunish masalalari keng yoritiladi. "Ostona" hikoyasining nomiga e'tibor bersak, uyga yoki biror joyga kirib - chiqish uchun mo'ljallangan joy hisoblanadi. Hikoya syujeti retrospeksiya usulida kechadi. Rovi bolalik yillarini esga olarkan, undagi voqealar insonni o'ylashga majbur qiladi. Muallif syujet va obrazlar orqali insoniy qadriyatlarni, mehr-muhabbat, sabr-toqat, insonlarning qadr-qimmatini, munosabatlardagi qarama-qarshiliklarni ochib beradi. Inson kimnidir yoki nimanidir uzoq muddat kutganida, yuragida sog'inch bilan yo'g'rilgan iztirob, so'nmas umid va sabrsizlik uyg'onadi. Yozuvchi bu borada bobo va nabira o'rtasidagi munosabatlari hamda qo'shnilar bo'lgan "besh kallar" obrazlaridan o'rinni foydalanadi. Ramziy ma'noda mushukning targ'il ekanligini ta'kidlaydi. Muallif boshqa ijodkorlar singari kutish va kutgan insonning holatini sariq rangda ochib beradi. Hikoya "...Pisht, ko'zlari sovuq o't sochadigan targ'il mushuk!" deb boshlanadi va shunday tugaydi, chunki bir oilada kutilgan inson ostonadan kirib keldi, lekin ikkinchi xonadonda haligacha inson qaytishiga umid bor ya'ni "beshkallar"dan biri Samad ota-onasining bag'riga kelishi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, inson qadri va xotirasiga alohida urg'u berilgan. Xotira - bu insonning ruhiyatini va ma'naviyatini ifodalovchi, uning asl mohiyatini ochib beruvchi, uni o'tmishi va kelajagi bilan bog'lab turuvchi muqaddas va bebaho qadriyat hisoblanadi. Xotira va qadrlash tushunchalari bugungi kunda yanada chuqur ahamiyatga ega bo'lib bormoqda, chunki insonga mehr ko'rsatish, uni hurmat qilish va qadrlash kabi amallar bizni globallashayotgan va tez o'zgarib borayotgan murakkab zamon sharoitida yuzaga kelayotgan turli xavf va tahdidlarga qarshi sezgir hamda hushyor





bo'lishga, o'tgan kunlarning og'ir tajribalaridan saboq olishga undaydi. Ayniqsa, bu mas'uliyat buyuk kelajakning egasi bo'lgan yosh avlod zimmasida nihoyatda katta ahamiyatga ega hamda tarbiyaviy-axloqiy jihatdan muhim o'rinni egallaydi.

Ijodkorning "Navoiyni o'qigan bolalar" hikoyasi ham juda ta'sirli tarzda yoritib berilgan. Erkin A'zam ushbu hikoyasida Mir Alisher Navoiy qanday ulug'zot bo'lganini, har kim ham bunday buyuk shaxslarning qadriga yetavermasligini ta'sirli tarzda ko'rsatadi. Navoiyni o'qigan bolalardan pul olmaslikni aytgan shofyor obrazida muallif bilimi, ma'naviyati yuksak yoshlarga hali ham oramizda ehtiyoj borligini ta'kidlaydi. Navoiy asarlarini mutolaa qilgan odam yomonlik qilmaydi, degan fikr hikoyaning asosiy g'oyasiga aylanadi. Talabalardan biri — Janobiddin Sayfiddinov — Navoiyshunos sifatida ajralib turadi. U Hazrati Navoiyni shunchalik chuqur o'rganadiki, uni faqat adib emas, balki avliyo darajasidagi shaxs deb biladi. Navoiyga bo'lgan hurmati shu darajada kuchliki, u hatto o'zining shaxsiy tuyg'ularini ham ichida saqlab, bu ulug'siymo singari hayotini toq o'tkazishga qaror qiladi. Do'stlari esa uni "Janobiddin Savdoi" deb atay boshlaydi. Ammo, jamiyatda bunday insonlarni tushunadiganlar oz. U haqiqatni aytishdan cho'chimaydigan, ilmga ixlosi baland yigit sifatida tasvirlagan. Bu hikoya tahlili jarayonida shuni anglashimiz kerakki, inson kimga ixlos qo'ysa, kimga ergashsa o'sha insonga o'xshab boradi. Ushbu hikoyada anglashimiz kerak bo'lgan, yana bir jihat komil inson tushunchasi hisoblanadi. Komil inson tushunchasi ma'naviy yetuk, axloqli va tarbiyali, aqlan va jismonan sog'lom insonni anglatadi. Inson yashash jarayonida, albatta, o'ziga yo'lboshchi tanlaydi, u ota-onasi, ustoz, asar qahramoni, olimlar, mutafakkirlar bo'lishi mumkin. Erkin A'zamning "Navoiyni o'qigan bolalar" hikoyasi bir qator muhim jihatlarni yoritib o'tish lozim. Birinchidan, insonning o'z e'tiqodi va tanlaganida mustahkam turishi haqidagidir. Janobiddin atrofdagilar tomonidan tushunilmasa ham, hatto masxara qilinsa ham o'z yo'lidan qaytmaydi. Bu uning ichki kuchini, ruhiy mustahkamligini va haqiqiy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan irodani namoyon etadi. Adabiyotimizda yana komil inson, barkamol avlod kabi tushunchalar keng qamrovli hisoblanadi. Ularga to'xtalib o'tadigan bo'lsak:

- ✓ ☐ barkamol inson tarbiyasi axloqiy-estetik tarbiya uyg'unligida amalga oshirilishi lozim. Agarda insonning ma'naviy qiyofasi estetik tarbiyaning insonparvarlik asoslari bilan uyg'unlashsa, bunda uning ma'naviy-ijtimoiy kamoloti ta'minlanadi hamda u komillik darajasiga ko'tariladi.
- ✓ ☐ badiiy adabiyotning axloqiy-estetik mazmunida insonlarni muhabbat yo'lida birlashtirish, insondagi odamiylikni kamol toptirishga ishora bor. Bu chinakam insonparvarlik g'oyasi bo'lib, tariqatda ilgari surilgan bu hikmatlar asrlar davomida yashab kelmoqda.



- ✓ 2 badiiy adabiyotning asosini insonning ham ruhan, ham jisman shakllanishi tashkil etib bu jarayon hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yoqatmagan. Bugungi kunda yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda uning axloqiy tizimi yo'llari va usullari qo'l keladi. Zero, aqliy, axloqiy, jismoniy rivoj topgan shaxsni shakllantirishning xam ruhiy, xam ma'naviy tarbiyalash xosilasi buning yaqqol dalilidir.

Erkin A'zamning "Fideldan salom" hikoyasi inson ruhiyatini, ichki dunyosini va hayotga bo'lgan qarashlarini satirik uslubda tasvirlaydi. Otaxon sodda, maqtovlarga ishonuvchan inson sifatida gavdalanadi. U hatto o'zi bilmagan, ko'rmagan inson — Fidel Kastroga ixlos qo'yadi, uning o'limi tufayli hayotga muhabbati so'nadi. Barcha yaqinlarini chaqirtirib, vasiyat qilmoqchi bo'ladi. Hikoyada otaxon o'g'li Baxtiyorning tanbehlaridan keyingina hayot haqiqatlarini anglay boshlaydi: "Dada! Fidel, Fidel deysiz, uni siz emas, men ko'rganman-ku! Fideldan salomni men olib kelganman-ku sizga. Fidel o'lgan bo'lsa o'lgandir. U axir inqilob qildi, xalqini ozodlikka olib chiqdi, hammangni baxtli qilaman deb laqillatib ellik yil qimirlamay taxtda o'tirdi! Oqibati mana – xalqi qaqshab, qashshoqlikda yotibdi! Shuncha savdodan keyin o'lmay nima qilsin odam?! Lekin sizga nima ekan?!". Satirik uslubda berilgan kulgili va o'ylantiruvchi voqealar orqali yozuvchi xalqimizga xos soddalik va samimiyatni yoritib, insonning hayotga bo'lgan munosabatini teran tahlil qiladi.

Hozirgi kunda yurtboshimiz tashabbuslari bilan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni kitob o'qishga jalb etishda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-yildan buyon muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi yoshlarning kitobga qiziqishini oshirish, ularning ma'naviyatini yuksaltirish hamda dunyoqarashini kengaytirishda muhim ro'l o'ynamoqda. Shu bilan birga, ishtirokchilarni rag'batlantirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan maxsus mablag'lar ham ajratilmoqda. Natijada, kitobxonlar safi tobora kengayib bormoqda. Albatta, kitobga oshno bo'lgan har bir yosh — kelajagimizning poydevori, Vatanimizning yorqin kelajagini bunyod etuvchi shaxs hisoblanadi. Bu esa, xalqimizning ma'naviy qudrati yuksalayotganidan dalolatdir.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy qadriyatlar adabiyotda o'z ifodasini topib, badiiy asarlar orqali avlodlardan avlodga uzatiladi. Adabiyot ma'naviy tarbiya vositasi bo'lib, insonning ruhiy dunyosini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Yozuvchilar o'z asarlarida ma'naviy masalalarni ko'tarib, jamiyatga yo'l-yo'riq beradi.

Erkin A'zam ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotida ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarni badiiy ifoda etishning yorqin namunasi hisoblanadi. Yozuvchining asarlari orqali milliy ma'naviyatimizning chuqur qatlamlarini ochib berish, zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy muammolarni ko'rsatish va



ularning yechimini izlash yo'lida muhim hisoblanadi. Erkin A'zam o'z ijodida insonning ma'naviy dunyosini, ruhiy kechinmalarini va axloqini psixologik usulda tasvirlaydi. Uning qahramonlari orqali zamonaviy insonning ma'naviy qidiruvlari, ichki ziddiyatlari va ruhiy kamolotga intilishlari yorqin namoyon bo'ladi. Yozuvchining asarlarida milliy qadriyatlar va umuminsoniy, ma'naviy tamoyillar uyg'unlik tashkil etib, bir-birini to'ldiradi. Bu esa uning ijodiy kontseptsiasining kuchli tomonlaridan biri hisoblanadi. Erkin A'zam o'z asarlarida nafaqat muammolarni ko'rsatadi, balki ularning yechimi yo'llarini ham izlaydi, o'quvchini ma'naviy fikrlashga, axloqiy tanlov qilishga undaydi. Erkin A'zam ijodi bugungi yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari orqali kelajak avlodlar milliy qadriyatlarni saqlash, insoniy fazilatlarni rivojlantirish va ma'naviy poklikka erishish yo'llarini o'rganishlari mumkin. Yozuvchining asarlari orqali o'zbek xalqining boy ma'naviy merosi zamonaviy talqinda ifoda etilgan va kelajak avlodlarga uzatilmoqda. Shu bilan birga, hozirgi globallashuv davrida milliy adabiyotimizning ma'naviy salohiyatidan to'liq foydalanish, uni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va ta'lim tizimiga samarali joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Erkin A'zam ijodi bu boradagi eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

References:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. – 19, 116 betlar.
2. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma'naviyat. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2015. – 3 b
3. Bayeshanov A. M. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida badiiy adabiyotning ahamiyati // Guliston davlat universiteti. – 2025. – URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15729797>.
4. A'zam Erkin. Ertak bilan xayrlashuv: qissalar va hikoyalar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 150 b.
5. Эркин Аъзамов. Отойининг туғилган йили: қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – (6.)
6. Sabirova S. B. Ma'naviyat va axloqiy tarbiya masalalarining Abdulla Qodiriy ijodidagi badiiy talqini // Conference on the Role and Importance of Science in the Modern World. – 2025. – T. 2, №5.
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/erkin-azam-fideldan-salom-bayramdan-boshqa-kunlar-audioqissa.html>
8. Федотов О. И. Основы теории литературы. В 2 ч. Ч. 1. - М.: Владос, 2003. - С. 253

